



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 4 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 9, НОМЕР 4

LOOK TO THE PAST
VOLUME 9, ISSUE 4



ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқулловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Bahodir Isakov O‘ZBEKISTONDAGI QOZOQ ETNOSI TARIXINI O‘RGANISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI.....	5
2. Abduvali Berdiyev, Soatqulov Islom XIVA XONLARI VA USMONLI SULTONLARI O‘RTASIDAGI YOZISHMALAR: DIPLOMATIK MAKTUBLAR TILI VA USLUBI.....	10
3. Пётр Чублук НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ИСТОРИИ ГРЕКО-МАКЕДОНЦЕВ НА ТЕРРИТОРИИ СРЕДНЕЙ АЗИИ ПРИ СЕЛЕВКИДАХ.....	14
4. Shahlo Ubaydullayeva O‘ZBEKISTON TIBBIYOTIDA XOTIN-QIZLAR FAOLIYATI VA ONA-BOLA SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISH MUAMMOLARI (XX ASRNING IKKINCHI YARMI MISOLIDA).....	22
5. Mirhomid Mirakbarov O‘ZBEKISTON GEOLOGIYASI TARIXIDA MURUNTOV OLTIN KONINING KASHF ETILISHI VA MAMLAKATIMIZ SANOATIDA TUTGAN O‘RNI.....	28
6. Mirjalol Abdullayev SHAYBONIYLAR DAVRIDA MUKOFOTLASH VA JAZOLASH TIZIMI (“MUSAXXIR AL- BILOD” ASARI MISOLIDA).....	35
7. Abdillajon Pazilov BENJAMIN FRANKLINNING IQTISODIY VA FALSAFIY QARASHLARI.....	41
8. Mashhura Burxanova ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTON O‘LKASIDAGI STRATEGIK MAQSADLARI VA UNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	46
9. Равшан Хомитов ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ЭТНОСЛАРАРО МУНОСАБАТЛАРДА РЕСПУБЛИКА ҚОЗОҚ МИЛЛИЙ МАДАНИЙ МАРКАЗИНИНГ ЎРНИ.....	51
10. Iqbol Jabbarova РАХТАЧИЛИКНИ RIVOJLANTIRISH YO‘LIDA: QASHQADARYO IRRIGATSIYA TIZIMINING BOSHLANG‘ICH TRANSFORMATSIYASI (1930–1940-y.).....	57
11. Rabiyajon Ibragimova QUYI AMUDARYO HUDUDIDA ANTIK DAVR SUG‘ORISH INSHOOTLARI.....	64
12. Gulrux Fayzullayeva, Shoira Nurullayeva AL XORAZMIY HAQIDA.....	68



Abdillajon Pazilov,
Namangan davlat universiteti,
tarix fanlari nomzodi

BENJAMIN FRANKLINNING IQTISODIY VA FALSAFIY QARASHLARI

For citation: Abdillajon Pazilov. ECONOMIC AND PHILOSOPHICAL VIEWS OF BENJAMIN FRANKLIN. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 4.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19846078>

ANNOTATSIYA

Maqolada XVIII asrda yashagan, dunyoning iqtisodiy jihatdan eng qudratli mamlakatlardan biri – Amerika Qo‘shma Shtatlari tarixida muhim rol o‘ynagan Benjamin Franklinning iqtisodiy va falsafiy qarashlariga oid ma‘lumotlar aks etgan. Unda muallif tomonidan Benjamin Franklinning avtobiografiyasi, uning hayot yo‘li va insoniyatga qoldirgan buyuk falsafiy merosi keng ko‘lamda tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Amerika Qo‘shma Shtatlari, jurnalistika, iqtisodiyot, falsafa, siyosat, dollar, grammatika, mantiq, matematika, fizika, mustamlakachilik siyosati, imperiya.

Абдиллажан Пазиллов,
Наманганский государственный университет,
кандидат исторических наук

ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ БЕНДЖАМИНА ФРАНКЛИНА

АННОТАЦИЯ

В статье содержится информация об экономических и философских взглядах Бенджамина Франклина, жившего в XVIII веке и сыгравшего важную роль в истории одной из самых экономически могущественных стран мира – Соединенных Штатов. Автор подробно анализирует автобиографию Бенджамина Франклина, его жизненный путь и великое философское наследие, которое он оставил человечеству.

Ключевые слова: Соединенные Штаты Америки, журналистика, экономика, философия, политика, доллар, грамматика, логика, математика, физика, колониальная политика, империя.

Abdillajon Pazilov,
Namangan State University,
Candidate of Historical Sciences

ECONOMIC AND PHILOSOPHICAL VIEWS OF BENJAMIN FRANKLIN

ABSTRACT

The article contains information about the economic and philosophical views of Benjamin Franklin, who lived in the 18th century and played an important role in the history of one of the most economically powerful countries in the world – the United States. The author extensively analyzes Benjamin Franklin's autobiography, his life path, and the great philosophical legacy he left to humanity.

Index Terms: United States of America, journalism, economics, philosophy, politics, dollar, grammar, logic, mathematics, physics, colonial policy, empire.

Dolzarbligi:

Hozirgi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlaridan biri bo'lgan Amerika Qo'shma Shtatlari XVIII asrda vujudga kelgan bo'lsa-da, qisqa davr ichida, ya'ni XIX asrning oxirlariga kelgandayoq jahonning eng qudratli biri aylanib ulgurgan edi. Bunda AQSh fuqarolari va davlat arboblarning o'rni beqiyosdir. Bunday davlat arboblari jumlasiga Jorj Vashington, Tomas Jefferson, Benjamin Franklin, Jon Medison, Tomas Edison, Avraam Linkoln, Teodor Ruzvelt va Franklin Delano Ruzveltlarning xizmatlari beqiyosdir.

Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Maqolada umumqabul qilingan ilmiylik, tarixiylik, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan holda Benjamin Franklinning iqtisodiy va falsafiy qarashlari tadqiq etildi. Mavzuning o'rganilishida A.A'zamov, V.V.Sogrin hamda Radovskiy kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlari va asarlaridan keng foydalanildi.

Tadqiqot natijalari:

AQSh tarixida o'ziga xos o'ringa va obro'ga ega bo'lgan davlat arboblardan biri Benjamin Franklindir. Uning nomi AQShda abadiylashtirilgan va unga hurmat ramzi sifatida "Amerika millatining otasi" nomi berilgan. Ushbu kichik bir tadqiqotda ana shu buyuk davlat arbobining AQSh va jahon tarixida tutgan o'rni yoritib berilgan.

Asos solinganiga ikki yuz yildan sal ko'proq bo'lgan Qo'shma Shtatlar XX asr nihoyasiga kelib dunyoda eng taraqqiy etgan davlat mavqeiga erishganining sababi nimada?" degan savol ko'ndalang kelishi tabiiy. Unga turli yo'nalishda javob izlash mumkin. Qayd etish kerakki, sovet mafkurasi ta'lim va targ'ibotda nafaqat Turkiston, shu bilan birga AQSh tarixini ham juda buzib, aks ranglarda tasvirlagan. Holbuki, ushbu davlat taqdirida umumjahon ijtimoiy tafakkur xazinasini boyitgan ibratli sahifalar talaygina. Jahonning eng rivojlangan davlati hisoblanmish AQSh tarixi sahifalarini bezatgan zotlardan biri – Benjamin Franklindir. Uning suratini dunyoning eng chekka chekkalarida ham uchratish mumkin: u AQShning 100 dollarlik banknotasida tasvirlangan. Ma'lumki, pulga millatning faxri bo'lgan shaxslar va obyektlar rasmi tushiriladi. Xususan, AQSh banknotalarida mamlakat mustaqilligi uchun urushning bosh qo'mondoni, Amerika Qo'shma Shtatlari asoschilaridan biri va uning birinchi prezidenti Jorj Vashington, AQShdagi fuqarolar urushi qahramoni, o'n sakkizinchi prezident Ulisis Grant kabi arboblarning rasmi tushirilgan. Franklin esa prezident bo'lgan emas, shunga qaramay, ushbu mamlakatda u "Amerikaning birinchi fuqarosi", "AQSh millatining otasi", "Yevropa bilan Amerika "meniki" deb talashadigan arbob" deya sharaflanadi (so'nggi ta'rif mashhur fransuz davlat arbobi Miraboga tegishli). Amerikaliklarning ana shu tuyg'usi 100 dollarlik pulida aks etgan [1. B.95].

AQSh tarixidan yaxshi xabardor bo'lmagan kishida tahayyur tug'ilishi tabiiy: xo'sh, Franklin kim bo'lgan? Qomuslar uni noshir, jurnalist, yozuvchi, faylasuf, tarixchi, etnograf, iqtisodchi, fizik, tabiatshunos, agronom, ixtirochi, diplomat, jamoat va davlat arbobi deb yoki ba'zan qisqacha "so'nggi qomusiy olim" deya tavsiflaydi. Shu faktning o'ziyoq uning tarjimai holi bilan yaqinroq tanishishga undaydi.

Benjamin Franklin 1706-yilda Boston shahrida sovungar oilasida dunyoga kelgan. U oiladagi o'n yetti farzanddan o'n beshinchisi edi. U 10 yoshligida otasi, oila tebratishga qiynalganidan uni maktabdan chiqarib oladi. Benjaminning sovungarlik kasbiga mehri yo'qligiga amin bo'lgan ota ikki yildan so'ng uni katta o'g'illaridan biri Jeymsga shogirdlikka beradi. Jeyms kichkina bosmaxona sohibi edi. Benjaminga matbaachilik juda yoqib tushadi. Chunki, bolaligidan

eng sevimli mashg'uloti kitob mutolaasi bo'lgan. "Kichikligimdan o'qishni jon-dilimdan sevar, kitob olish uchun tiyinlab pul yig'ar edim", deb yozgan u avtobiografik qissasida [2. C.16].

Benjamin maktabda o'qimasa ham, mustaqil tarzda grammatika, mantiq, matematika, fizika va boshqa tabiiy fanlar hamda navigatsiya nazariyasi bilan shug'ullanadi; fransuz, nemis, italyan, ispan va lotin tillarini o'rganadi. Jeymsning ustozligida u mohir matbaachi bo'lib yetishadi, 15 yoshidan e'tiboran esa akasi nashr qiladigan gazetaga yashirincha – "Mrs. Silense Dogood taxallusi bilan maqolalar yoza boshlaydi. [3. P.1] Bu sir ochilib qolgach, Jeyms uning yozganlarini chop etishdan bosh tortadi. Bu paytda 17 yoshni qoralagan yigit cho'ntagida atigi 1 dollar bilan Pensilvaniya koloniyasi poytaxti – Filadelfiya shahriga bosh olib ketadi. To manzilga yetguncha, ochiqqan Benjamin bor puliga uchta kulcha sotib olgani, ikkita kulchani yosh bolali yo'lovchi ayolga berib, bittasini o'zi kavshagancha toleini izlab ko'chalarda sang'igani rivoyatga aylanib ketgan.

Filadelfiyada Franklin harf teruvchi bo'lib ishga kiradi. Keyin o'zi bosmaxona ochib (1728-yilda), "Pensilvaniya gazetasi"ni nashr eta boshlaydi. Tez orada uning nomi ham, gazetasi ham koloniyalarda shuhrat qozonadi. Garchi, u hech qachon foydaning ketidan quvmagan bo'lsa-da, sarmoyasi yuksalib boraveradi. Buning bosh sababini yosh noshirning qo'shnisi shunday izohlaydi: "Franklinning ishi doim yurishuviga sira shubham yo'q. Men bunaqa mehnatkash, kasbini bu qadar sevadigan yigitni uchratmaganman ertalab ishga jo'nayotsam, u ish ustida bo'ladi, kechqurun qaytayotganda ham uni ish ustida o'tirganini ko'raman" [4. P.144].

Franklin matbaachilik sohasida tinmay izlanadi. Xususan, u jurnalistika tarixida birinchi marta karikaturalar chop eta boshlaydi. Ayniqsa, uning 1732-yildan boshlab 25 yil davomida nashr etgan "Faqir Richard almanaxi" mashhur bo'lgan. Mubolag'asiz aytish mumkinki, "Faqir Richard" nomidan berilgan Franklin o'g'itlari Amerika millatining shakllanishida muqaddas kitoblar kabi xizmat qilgan. Ushbu almanaxlardan joy olgan "Boy bo'lishni istaganlarga zarur maslahatlar", "Yosh tijoratchiga maslahat", "Farovonlikka yo'l", "Har kimning cho'ntagida puli mo'l bo'lishi uchun nima qilish kerak?" singari maqolalarning sarlavhasiyoq bu haqda muayyan tasavvur beradi. Ularni tadbirkorlik bo'yicha dastlabki qo'llanma deyish ham mumkin. Franklinning shu mavzudagi maqolalarini ilm ahli o'ziga xos falsafiy-axloqiy ta'limot deb tan olgan. Franklin falsafiy qarashlari hayotiyiligini o'z faoliyati bilan isbotlaganki, ushbu ta'limotini amaliy falsafa deb atash mumkin.

Filadelfiyada Franklinning ishi yurishib ketganidan so'ng u mablag'ining anchaginasini shaharni obodonlashtirish, yangi ish boshlayotgan tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, kambag'allar uchun bepul kasalxona ochish va universitet tashkil etishga sarflaydi. U bunday ishlarning hammasini beg'araz qilgan. U ixtirolarining birortasiga ham, odamlar bemalol foyda-lansin, degan niyatda, patent olmagan, aksincha, yashinqaytargichni har kim tezroq o'rnatib olsin, deb anchamuncha jon kuydirgan. Merosidan 5000 dollar (o'sha paytda bu yirik mablag' bo'lgan)ni jamoat ishlariga sarflashni vasiyat qilgan.

Benjamin Franklinning AQSh va dunyo mamlakatlarida bunchalik mashhur bo'lishiga sabab – uning iqtisodiy va falsafiy tafakkuri kengligidir. Franklin oligarxik idora usulining va mustamlakachilikning xavfli ekanligini yaxshi tushunar edi. Biroq, u ko'proq mo'tadil siyosiy qarashlarni yoqlab keldi, uzoq vaqt metropoliyaga qarshi kurashga qaraganda liberallarcha kompromiss usullarini ustun qo'yib keldi, siyosatda qat'iy izchil bo'lmadi. Mustamlakachi burjuaziyaning ilg'or manfaatlarini himoya qilib, Franklin dastlab Britaniya imperiyasi doirasida mustamlakalarni birlashtirishga va o'z-o'zini boshqarishni kengaytirishga harakat qildi. Franklin bu imperiyani chinni kosaga o'xshatgan va uning bir cheti uchib ketsa, o'z qimmatini yo'qotadi, degan edi. Ammo, uning fikricha, bu imperiyani markazi Shimoliy Amerika bo'lishi, poytaxt Londondan shu yerga ko'chirilishi kerak edi [5. C.235].

Xullas, Franklin qanday lavozimda ishlagan bo'lmasin, maoshini asosan xayriya ishlariga sarflab, o'zi bosmaxonasidan keladigan daromad hisobiga yashagan. U noshirlik faoliyatidan juda faxrlangan va shahrsiy hujjatlarini "Men, noshir Benjamin Franklin..." deb boshlagan. Ushbu lavhalaridan yaqqol ko'rinadiki, Franklin saxovatli, olijanob va insonparvar kishi bo'lgan. U hayotda odam uchun eng mu-him sifat fozillik, yaxshi fazilat deb bilgan, o'zining erishgan barcha muvaffaqiyatini shu sifat bilan izohlagan [6. C.159].

Franklin adabiyotning xilma-xil janrida ijod qilgan bo'lsa ham, yirik asarlari sanoqli. Ulardan biri – “Benjamin Franklin hayoti” nomli memuar qissa. Zamondoshlari uni Yuliy Sezar xotiralari bilan qiyoslagan va hatto amaliy ahamiyati jihatidan undan ustun qo'ygan [7. P.144]. Ushbu kitob Franklinning xarakteri va dunyoqarashi qanday shakllanganligi haqida batafsil tushuncha beradi. Asar odam o'zini o'zi qanday tarbiyalashi bo'yicha qo'llanma bo'la oladi. Bunga ishonch hosil qilish maqsadida kitobdan parcha keltiramiz: “Taxminan shu vaqtda, (1728-yilda axloqiy kamolotga erishish uchun dadil va qiyin reja tuzdim. Niyatim – har qanday xatodan o'zimni tiyib yashash, tabiiy mayllar, odatlar yoki jamiyat ta'sirida meni og'dirishi mumkin bo'lgan hamma narsani yengish edi. Men nima yaxshiyu nima yomonligini bilar edim yoki bilaman deb o'ylardim, shuning uchun har doim yaxshi narsalarga amal qilib, yomonlaridan saqlanishimga xalaqit beradigan to'siq ko'rmas edim. Biroq, tez orada men o'z oldimga dastlab o'ylaganimga qaraganda ancha murakkab masala qo'yganimga amin bo'ldim. Bor diqqat-e'tiborim muayyan bir xatodan qochish bilan band bo'lgan paytda ko'pincha boshqa xatolarni qilib qo'yar edim; fe'limga singib ketgan odat diqqatim susaygan chog'da o'zini namoyon etar edi; ba'zan esa mayl aqldan ustun kelar edi. Nihoyat shunday xulosaga keldimki, “yaxshi fazilatli bo'lish qanday yaxshi” degan e'tiqodning o'zi yetarli emas, bu narsa kishini noma'qul xatti-harakatlardan saqlayvermaydi; muntazam va mustahkam xushxulqli bo'lishdan avval vujudimizdagi yomon odatlarni sitib chiqarish kerak. Mana shunga erishish uchun maxsus usul ishlab chiqdim. O'sha paytda menga zarur va yoqimli bo'lib tuyulgan jamiki fazilatlarini o'n uchta nom bilan atadim va ularning har bliri haqida yo'riqnoma tuzdim:

1. Tiyilish – to'yib ketguncha yemaslik, kayf bo'lguncha ichmaslik.
2. Sokinlik – faqat o'zimga yoki boshqalarga foyda keltirishi mumkin bo'lgan so'zlarni so'zlash, quruq gaplardan qochish.
3. Tartib – har bir buyumni o'z joyida saqlash; har bir mashg'ulotga muayyan vaqt ajratish.
4. Qat'iyat – nimani qilish kerak bo'lsa, so'zsiz shunga kirishish; kirishilgan narsani esa so'zsiz bajarish.
5. Tejamlilik – pulni faqat yaxshilik keltiradigan ishlarga sarflash, ya'ni hech narsani isrof qilmaslik.
6. Mehnatsevarlik – vaqtni bekor o'tkazmaslik; har doim foydali biror ish bilan mashg'up bo'lish; har qanday befoyda mashg'ulotdan voz kechish.
7. Samimiyat – yolg'on yoki aldov bilan hech kimga zarar keltirmaslik, solih va adolatli fikr yuritish; bu tamoyillarga gapirganda ham amal qilish.
8. Adolat – hech kimga zarar keltirmaslik, adolatsizlik qilmaslik va zimmadagi ezgu ishlarni bajarmay qo'yimaslik.
9. Me'yor – hech narsada haddan oshmaslik, adolatsizlik tufayli tug'iladigan alam tuyg'usini imkoni boricha tiyish.
10. Ofiyat – badan bulg'anishiga yo'l qo'yimaslik; kiyinish va turarjoyda orastalikka amal qilish.
11. Xotirjamlik – arziyas narsalar hamda odatdagi yoki muqarrar holatlardan hayajonga tushmaslik.
12. Kamtarlik – Iso va Suqrotga taqlid qilish [8. C.46].

Shundan so'ng Franklin ushbu fazilatlarini o'zida tarbiyalashga kirishganini bayon qiladi. Bunda u avval birinchi fazilat odat tusiga kirmaguncha boshqalariga kuch sarflamay turganini, faqat bir fazilat xulqiga singib ketganidan so'nggina navbatdaxisini tarbiyalashga o'tganini bayon qiladi. Bu jarayonni kuzatib borish uchun maxsus daftarcha tutadi. Uning tarjimai holida bu daftarchadan bir sahifa keltirilgan (unda “X” belgisi tegishli kunda fazilat buzilganini ko'rsatadi; birinchi fazilat – “Tiyilish” tarbiyalanayotganda Franklin faqat yana besh fazilat borasida kuzatish olib borgan).

Franklin tarjimai holida yana quyidagi so'zlarni o'qish mumkin: “Avlodim bilsinki, mana shu arziyas ixtiro tufayli, xudoning marhamati bilan, ularning bu ajdodi, ya'ni Franklin yetmish to'qqiz yoshigacha davom etayotgan saodatga erishgan. Uning qolgan umri davomida hayot yana qanday sinovlarga ro'baro' qilishi taqdiri azalga bog'liq, ammo mabodo bunday sinovlar boshga tushsa, hayot yo'li haqidagi xotira ularni mo'minlik bilan kechirishga madad bersa kerak.

Tiyilish tufayli uning salomatligi yaxshi saq-langani va ishlash qobiliyati sira susaymagan; mehnatsevarlik va tejamkorlik tufayli u qisqa muddat ichida o'zining iqtisodiy ahvolini yaxshilab olishga, mulk orttirishga hamda bilim egallashga muvaffaq bo'lganki, ana shu bilim unga jamiyat uchun foyda keltirishga va ilm ahli orasida muayyan obro' topishga imkon berdi; samimiyat va adolatlilik tufayli u yurtning ishonchini qozondi, sharaflilavozimlarga musharraf bo'ldi; jami fazilatlar, garchand u erisha olgan daraja mukammal bo'lmasada, fe'l-atvorini ravon, suhbatini yoqimli qildi, shu tufayli u bilan muloqot hatto yoshlar uchun ham jozibasini yo'qotmadi. Shularni nazarda tutib, umid qilamanki, avlodimdan bir qismi bo'lsa-da tajribamdan o'rnak olib, men kabi samaraga erishadi" [9. B.99].

Xulosa:

Franklinning shaxsiy hayoti ham, asarlari ham nafaqat uning avlodi, shu bilan birga butun amerikaliklar uchun o'ziga xos axloqiy alifbo vazifasini bajarib keladi. Uning ko'plab iboralari esa hikmatga aylanib ketgan.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Аъзамов А. Америка миллатининг отаси // Тафаккур. – 2000. – №3. – Б.95.
2. Франклин В. Избранные произведения. – Москва, 1956. – С.16.
3. Mrs. Silence Dogood – “sokin”, “so'zbajar xonim” degan ma'noni anglatadi. XVIII asrda AQShda gazeta xodimlari o'zlarini shunday taxalluslar bilan ataganlar.
4. Крейн В. Rising people. – Boston, 1954. – P.144.
5. Согрин В. В. Идеиные течения в Американской революции XVIII века. – М.: Политиздат, 1980. – С.235.
6. Франклин В. Избранные произведения... – С.159.
7. Крейн В. Rising people... – P. 114.
8. Радовский М. И. Вениамин Франклин. 1706–1790. – Л.: Наука, 1965. – С.46.
9. Аъзамов А. Америка миллатининг отаси... – Б.99.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000